

**KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOT TUSHUNCHASI VA UNING
ZAMONAVIY DEMOKRATIK DAVLAT RIVOJIDAGI AHAMIYATI**

Amirkulova Ra‘nogul Ixtiyor kizi
Toshkent Davlat Yuridik
universiteti magistratura talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyati hamda konstitutsiyaviy islohotlarning davlat va jamiyat hayotidagi ahamiyati tahlil qilingan. Unda inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash, demokratik tamoyillarni mustahkamlash, davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish hamda fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, Konstitutsiyada inson qadri ustuvor tamoyil sifatida e‘tirof etilgani, jamoatchilik nazorati va huquqiy kafolatlarning kuchaytirilgani ilmiy-huquqiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, konstitutsiyaviy islohot, inson huquqlari, inson qadri, demokratik tamoyillar, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, davlat boshqaruvi, jamoatchilik nazorati, qonun ustuvorligi, huquq va erkinliklar

Abstract: This article analyzes the essence and content of the new edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan and the significance of constitutional reforms in the life of the state and society. It covers issues of ensuring human rights and freedoms, strengthening democratic principles, improving the public administration system, and expanding citizens' participation in public administration. It is also scientifically and legally justified that human dignity is recognized as a priority principle in the Constitution, public control and legal guarantees are strengthened.

Keywords: Constitution, constitutional reform, human rights, human dignity, democratic principles, rule of law state, civil society, public administration, public control, rule of law, rights and freedoms

Hozirgi globallashuv va siyosiy-huquqiy transformatsiyalar sharoitida davlatlarning barqaror taraqqiyoti, avvalo, ularning konstitutsiyaviy tizimi qanchalik zamon talablariga mosligi bilan belgilanadi. Konstitutsiya jamiyat va davlat hayotining siyosiy, huquqiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy asoslarini belgilab beruvchi oliy yuridik hujjat sifatida nafaqat davlat hokimiyatini tashkil etish mexanizmini, balki inson huquq va erkinliklarini ta‘minlashning fundamental kafolatlarni ham ifoda etadi. Shu bois konstitutsiyaviy islohotlar har qanday davlat taraqqiyotining strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Inson qadri uchun” tamoyili 2023-yilgi konstitutsiyaviy islohotlarning g‘oyaviy va konseptual asosini tashkil etdi. Prezident ta’kidlaganidek: “Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida inson qadrini ulug‘lash va erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bosh maqsadimizdir”. Ushbu g‘oya davlat va jamiyat munosabatlarining yangi huquqiy modeli shakllanayotganligini anglatadi.

Ayniqsa, Sh.M.Mirziyoyevning “Men bu jarayonlarni bevosita kuzatib, bir narsaga quvondim. Boshlanayotgan yangi davrdagi o‘zgarishlarga fuqarolarimiz befarq bo‘lmasdan, o‘zlari tashabbuskor bo‘lib, ko‘plab takliflar bermoqda va islohotlarimizni faol qo‘llab-quvvatlamogda. Ulardan kelib tushgan hech bir taklifni e‘tiborsiz qoldirmasdan, Asosiy qonunimizni takomillashtirish jarayonida albatta inobatga olishimiz zarur. Bosh maqsadimiz – har bir yurtdoshimiz ushbu hujjatni mening Konstitutsiyam deb faxrlanadigan mukammal darajaga olib chiqishdir. ... So‘ngra ushbu muhim masalalar bo‘yicha batafsil fikr almashsak..”, deya mulohazalarini bildirib o‘tgan konstitutsiyaviy islohotning davlat va jamiyat oldida naqadar muhim vosita ekanligini ko‘rsatadi.

Prezidentning 2022-yil 20-iyunda Konstitutsiyaviy komissiya a‘zolari bilan uchrashuvida bildirgan fikrlari ham bu borada muhim nazariy ahamiyat kasb etadi. Xususan, unda: “Konstitutsiya — bu shunchaki hujjat emas, balki xalqimizning erkin va farovon hayoti kafolati” ekanligi ta’kidlangan. Mazkur yondashuv konstitutsiyaviy islohotlarni davlat hokimiyati manfaatlarini emas, avvalo inson manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan demokratik jarayon sifatida baholash imkonini beradi.

Konstitutsiyaviy islohot tushunchasiga nisbatan huquqshunos olimlar tomonidan turlicha yondashuvlar bildirilgan. Jumladan, rus olimlari V.Y.Chirkin va S.A.Avakyan konstitutsiyaviy islohotni davlat va jamiyat taraqqiyoti ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda konstitutsiyaviy normalarni takomillashtirish, davlat hokimiyati tizimini modernizatsiya qilish hamda inson huquqlari kafolatlarini kuchaytirishga qaratilgan siyosiy-huquqiy jarayon sifatida baholaydilar. Professor S.A.Avakyaning fikricha, “konstitutsiyaviy islohot — bu faqat Konstitutsiya matnini o‘zgartirish emas, balki davlat va jamiyat munosabatlarining yangi huquqiy modelini shakllantirishdir”.

Ushbu olimlarning yondashuvga ko‘ra, konstitutsiyaviy islohotlarning asosiy sababi jamiyat ehtiyojlari va amaldagi konstitutsiyaviy mexanizmlar o‘rtasidagi nomutanosiblik hisoblanadi. Fransuz siyosatshunosi M.Dyuverje Konstitutsiyaning ahamiyati haqida shunday yozadi: “Konstitutsiya bu davlat hokimiyatini tashkil qilish vositasi emas, balki jamiyat va davlat o‘rtasidagi siyosiy kelishuvdir.” Olimning mazkur fikri konstitutsiyaviy islohotlarni xalq irodasi va ijtimoiy konsensus bilan bog‘liq demokratik jarayon sifatida tushunish imkonini beradi, shuningdek u konstitutsiyaviy rivojlanishni davlat hokimiyatining legitimligi va xalq irodasi bilan bog‘laydi. Amerikalik siyosatshunos S.Xantington siyosiy modernizatsiya nazariyasi

doirasida “Siyosiy institutlar jamiyatdagi o‘zgarishlarga mos ravishda rivojlanmasa, siyosiy beqarorlik kelib chiqadi”, fikrini doim himoya qilishga harakat qilgan.

Jumladan, Nemis huquqshunosi va konstitutsionalizm nazariyasining yirik namoyandalaridan biri K.Lyovenshtayn ham Konstitutsiya va konstitutsiyaviy islohotlar mohiyatiga oid muhim ilmiy qarashlarni ilgari surgan. Uning nazariyasiga ko‘ra, konstitutsiyaviy islohotlar jamiyatdagi ijtimoiy ehtiyojlar va siyosiy munosabatlar o‘zgarishi natijasida vujudga keladi. Konstitutsiya faqat yuridik hujjat emas, balki jamiyatdagi siyosiy kuchlar muvozanatini tartibga soluvchi amaliy siyosiy mexanizm hisoblanadi va Konstitutsiya - jamiyatda siyosiy hokimiyat taqsimotining amaliy ifodasidir.

O‘zbekiston huquqshunos olimlari ham mazkur masalaga alohida e‘tibor qaratishgan. Xususan, akademik A.X.Saidov konstitutsiyaviy islohotlarni “demokratik davlatchilikni rivojlantirishning eng muhim huquqiy mexanizmi” sifatida baholaydi. Uning ta’kidlashicha, Konstitutsiyada inson manfaatlari va qadri ustuvor o‘rin egallashi zamonaviy davlat taraqqiyotining asosiy sharti hisoblanadi. B.Mustafoyev esa, konstitutsiyaviy islohotlarning asosiy maqsadi davlat va jamiyat munosabatlarini liberallashtirish, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishdan iborat ekanligini ta’kidlaydi.

Bizningcha, zamonaviy demokratik davlatchilik nazariyasiga ko‘ra, Konstitutsiya jamiyat taraqqiyotining “siyosiy-huquqiy kompassi” vazifasini bajaradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, konstitutsiyaviy islohotlar quyidagi muhim vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi:

- inson huquq va erkinliklarini kafolatlash;
- davlat hokimiyati faoliyatini cheklash va muvozanatlash;
- fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish;
- ijtimoiy adolatni ta’minlash;
- davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish;
- qonun ustuvorligini mustahkamlash.

Bugungi kunda dunyo davlatlarining aksariyatida konstitutsiyaviy modernizatsiya jarayonlari kuzatilmoqda. Masalan, 1990-2023-yillar oralig‘ida dunyo bo‘yicha 100 dan ortiq davlat o‘z konstitutsiyalariga jiddiy o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritgan. Xususan, Fransiyada 24 marta, Germaniyada 60 dan ortiq, Turkiyada 20 ga yaqin, Qozog‘istonda esa, bir necha bosqichli konstitutsiyaviy islohotlar amalga oshirilgan. Bu holat konstitutsiyaviy taraqqiyotning uzluksiz jarayon ekanligini ko‘rsatadi.

Xususan, Mamlakatimizda ham 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni yoqlab ovoz bergani ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi. Shu bilan

bir qatorda, Bosh qomusimizda xalqimizning Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha orzu-umidlari va intilishlari o‘z aksini topganini ifoda etadi.

Shundan kelib chiqib, keyingi yillarda mamlakatimizda Yangi O‘zbekiston inson sha’ni va qadr-qimmati, huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari oliy qadriyat hisoblangan davlat bo‘lishi; xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi; “odamlar tashvishi bilan yashash”, xalqimizning qonuniy talab-istaklari va xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish davlat organlari faoliyatini baholashning eng muhim mezoniga aylanishi; barcha muhim qarorlar aholi ishtirokida, fuqarolik jamiyati institutlari bilan maslahatlashuv asosida qabul qilinishi kabi prinsip va g‘oyalarni hayotga tatbiq etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligi bejizga emas.

A.X.Saidov bu masalaga quyidagicha izoh beradi. “Bugungi kunda inson qadr-qimmati, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash g‘oyasi davlatimizning butun ichki va tashqi siyosatining tamal toshiga, Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan demokratik islohotlarning eng muhim harakatlantiruvchi kuchiga hamda ushbu ezgu sa’y-harakatlarni o‘zaro bog‘lab turuvchi muhim omilga aylandi. Xulosa qilib aytganda, konstitutsiyaviy islohotlar har qanday demokratik davlat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Ular jamiyat va davlat hayotida yuz berayotgan siyosiy, ijtimoiy hamda huquqiy o‘zgarishlarni zamon talablariga mos ravishda tartibga solishga xizmat qiladi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, inson qadrini ulug‘lash, davlat hokimiyati faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga qaratilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.
3. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomalari to‘plami. – Toshkent, 2023.
4. Saidov A.X. *Konstitutsiyaviy huquq asoslari*. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020.
5. Odilqoriyev X.T. *Konstitutsiyaviy xukuk*. – Toshkent: Adolat, 2018.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni.
7. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – BMT, 1948.
8. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt. – BMT, 1966.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy islohotlarga oid nutq va ma’ruzalari.
10. Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga oid ilmiy maqolalar va manbalar.